



TALABALARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

O'rinov U.A.

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti professori

Raxmatova D.S.

Zarmed universiteti assistenti

Tayanch so'zlar: talaba, tadqiqot, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy tayyorgarlik, texnik baza, ish beruvchi, pedagogik texnologiya.

Ключевые слова: студент, исследование, знания, умение, квалификация, профессиональная подготовка, техническая база, работодатель, педагогическая технология.

Key words: student, research, knowledge, skills, qualifications, professional training, technical base, employer, pedagogical technology.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risidagi farmonida “Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash” deya qo'yilgan topshiriq yangi davrdagi ta'lim-tarbiyaga o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda [1].

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirishda bir qator mezonlarni e'tiborga olish zarur bo'ladi ya'ni:

- hozirgi zamon ta'labiga javob beradigan eng avvalo jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim makonlari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik



texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilishi, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim makonlaridan yuqori malakali pedagoglar va olimlarni faol jalb qilish;

- kasbiy-pedagoglar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talabalarini inobatga olgan holda optimallashtirish;
- oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, bakalvriat ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;
- yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;
- kasbiy-pedagog kadrlarning professional mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda kasbiy-pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish hamda stajirovkasini o'tkazish;
- moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir.

Aytib o'tilgan mezonlar psixologiya va pedagogikada qiziqish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammolarini o'rganish bilan belgilanadi. Pedagogik o'zaro ta'sir hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyat va hodisalar orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ta'limda: talaba shaxsining rivojlanish sharti, OTM bitiruvchisida kompetentlikni yuzaga kelish omillari, talabaning kompetensiyaviy yondoshuvini shakllantirish shartlari va boshqalar keng tarqalgan [2].

Biz tomonimizdan o‘zbeklashtirilgan ilmiy-tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim quyidagicha belgilanadi:

- maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti, talaba shaxsiyatini rivojlantirish imkoniyatini shartlovchi omillar va shart-sharoitlar;
- muayyan koordinatalar tizimiga kiritilgan integrativ birlik bo‘lib, u talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida o‘zini o‘zi rivojlanishiga sabab bo‘ladi;
- ta’lim vaziyatlarining o‘zaro bog‘liq chiziqlari, pog‘onalari va modullari bo‘lib, ular talabaning faolligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limning o‘ziga xos xususiyatlariga ularning davomiyligi, tuzilishini, o‘zaro aloqasi va elementlarning o‘zaro munosabati, ajralib turishi kiradi.

Biz tomonimizdan o‘tkazilgan tadqiqot, OTM talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish, mutaxassisning kasbiy tiklanishi yaxlit bir butun shaxs pedagogik jarayon ta’limda amalga oshirilib, u OTMda ta’lim olish jarayonida talabaning shaxsiy rivojlanish, o‘zini o‘zi anglashi, kasbiy yo‘nalganligini aniqlashning omili hisoblanadi.

Yuqoridagi omillarni ajratib ko‘rsatish bizga ta’lim muhitini ajratishga imkon beradi:

1) sub’ekt tomonidan ushbu turdagi kasbiy faoliyatni o‘zlashtirilishini nazarda tutadi (mavjudlik sifatida ta’lim muhitidan hamda o‘zaro aloqador shartlar ta’siri sifatida ta’lim makonidan voz kechish imkonini beradi);

2) talab, ehtiyoj va kasbiy faoliyat natijasida muammolarni qo‘yadi va hal qiladi, ta’lim modellashtiradi.

Bizning tadqiqotimizda OTM talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish sifatida yetakchi omil sifatida ta’limga ustuvor ahamiyat beriladi. Bizning fikrimizcha, OTMda ta’limni birlashtirish zarurati OTM bitiruvchisi - kelajakdagi mutaxassisning kasbiy, shaxsiy va kompetensiyaviy fazilatlarini shakllantirishdan kelib chiqadi.

Tadqiqot davomida, OTM talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda quyidagi hollarda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

- bitiruvchini kompetensiyaviy yondashuvini rivojlantirish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan o‘zaro aloqador kasbiy ta’lim va tuzilmalarni yaratish;
- ta’lim, kasbiy, amaliy, tadqiqot, innovatsion, tarbiyaviy, boshqaruv, iqtisodiy va moliyaviy unsurlarni o‘z ichiga olgan ko‘p-funksiyali makonni yaratish;
- talaba-o‘qituvchi – ish beruvchi o‘rtasida sub’ekt-sub’ekt o‘zaro aloqadorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘p profilli makonni yaratish.



o'zgarishlarini shartlaydi hamda har bir talabani imkoniyatlar bilan ta'minlash, ilmiy va innovatsion muhitni rivojlantirish ham talabaning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi.

Avvalo, ilmiy va innovatsion muhit ilmiy xodimlar hamjamiyati va talabaning "barcha muhim kuchlari" ning rivojlanishini, uning ijodiy va intellektual salohiyatini ta'lim xizmatlari bozorida talabalarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishning asosi sifatida dastavval ta'lim mazmunini, innovatsion ta'lim texnologiyalari va yoshlarni tarbiyalashning innovatsion usullarini qo'llashdan iborat bo'lib, u yuqori kompetensiyaga ega talabalarni tarbiyalashni nazarda tutadi [4].

Biz ilmiy-innovatsion faoliyatni tashkil etish usullarini belgilashda nafaqat umumma'lum usullar - tahlil qilish, baholash, tashkil etish jarayonlari, optimallashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish, boshqarish tizimi innovatsion usullari, boshqaruvda innovatsion loyihalar, tarkibiy va funksional tahlil, dasturiy-maqсадli usul, loyiha moliyalashtirish usullari, boshqaruv usullari yaratish va innovatsion mahsulot tijoratlashtirish jarayonini usullariga nisbatan qo'llanilishi kerak.

OTMda ilmiy va innovatsion rivojlanish bugungi kunda quyidagilardan iborat bo'ladi:

- oliy o'quv yurtining barcha tarkibiy qismlarining birlashtirivchi mezonlari;
- oliy o'quv yurtlari manfaatlarini ilmiy - tadqiqot ishlari bilan birlashtirish;

Ta'lim makonida talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, tashqi va ichki omillarga bog'liq:

1. Ta'lim makonida talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar;

- institutsional omillar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, demografik, texnik-texnologik);
- ta'lim xizmatlari bozorida talab va takliflar bilan bir qatorda ehiyojlarga bog'liqlik. Ushbu omil o'z ichiga ta'lim xizmatlari bozorida vaziyatni oladi, bu OTM tomonidan ta'minlanadigan kadrlar sifati ta'sirida shakllanadi.
- xususiy-davlat hamkorligi asosida strategik sheriklik real ishlab chiqarish va OTM bitiruvchisida kasbiy-malaka afzalliklari orasidagi o'zaro aloqadorlikni nazarda tutadi.

2. Ta'limda talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga ichki omillarning ta'siri:

- OTM innovatsion va investitsion faolligi, talabaning mavjud intellektual, axborot, ta'lim, xususiyatlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy, texnik, moliyaviy va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi;



- Oliy o‘quv yurtining moslashuvchanlik darajasi, bu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zgarishlarga, ish beruvchilarning kasb-pedagogikaga bo‘lgan talablarining o‘zgarishiga ta’sirchanligi – yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash faoliyat sohalarida aks etadi;
- OTM nufuzi va uning ilmiy potensiali – bular bitiruvchilarning kelajakdagi kompetensiyaga ega bo‘lishi uchun qo‘shimcha sharoitlar mavjudligini belgilaydi;
- OTMda pedagogik strategiya mavjudligi, ishlab chiqilgan jarayonlar va texnologiyalar, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi;

Shu bilan bir vaqtda, talaba o‘z raqobatbardoshligi rivojlanishi bo‘yicha harakatlarni hisobga olishda quyidagi guruhli omillarini nazarda tutishi zarur:

1) strategik xulq-atvor omillari (samarali xulq), ular ta’lim xizmatlari bozorida kompetensiyaviy munosabatlarda talabani imtiyozlarga erishishga yo‘naltiradi:

- uzluksiz ravishda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga intilish;
- o‘zlarining kelajakdagi mutaxassislarini to‘liq o‘zlashtirish istagi;
- talabalarning yuqori darajadagi ish qobiliyatini namoyish etishi;
- yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish va boshqalar.

2) taktik xulq-atvor omillari ustuvor strategik qadamlarni o‘z ichiga oladi, masalan:

- talaba tomonidan intensiv ravishda o‘qish boshlaganidan boshlab oliy o‘quv yurtlarida rivojlanishi;
- hayoti va o‘qishlarida rejalashtirish tizimidan foydalanish;
- doimiy o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonlari va boshqalar.

Ish beruvchilar, bitiruvchilarni kasbiy-kompetensiyaga egaligini ish berishdan avval quyidagi sifatlarni talab qilishlari nazarda tutiladi: amalga oshirayotgan ishi uchun mas’uliyatlik, o‘z kuchiga ishonish, o‘zini namoyish qilishni bilish, kasbiy moslashuvchanlik va harakatchanlikni namoyon qilish, katta doiradagi kasbiy muammolarni keng ko‘lamdagi kasbiy vazifalarni egallash, uzluksiz ravishda o‘z tajribasini boyitish va muvaffaqiyatga yo‘nalganlik.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda talabaning ko‘nikmalarini, qayta ishlash va axborot ko‘nikmalarini tahlil qilish, rejalashtirish kabi sifatlari, shuningdek qobiliyati kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun sharoitlarni o‘zgartirishga tezda moslashish alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo‘lga qo‘yish zarurligi yuzaga kelmoqda. Dars jarayonida xalq xo‘jaligida bevosita ishlab chiqarish bilan mashg‘ul mehnat ishchilariga hurmat va izzat tuyg‘ularini singdirib borishga alohida e’tibor qaratish lozim.



Kasbga yo‘llash bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari talabalarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda an’anaviy amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlar, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o‘tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarni kasbga yo‘naltirish birgina kasbiy ta‘lim o‘qituvchisining ishi emas, balki butun ta‘lim jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Oliy ta‘lim muassasida fan o‘qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog‘lab o‘tishsa, ta‘lim muassasasi psixologi va rahbariyati talabalarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina talabalarga kasb tanlashlarida ko‘mak bergan bo‘lishadi. Aholini ratsional va samarali bandligini ta‘minlashdagi kasbga yo‘naltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasbga bo‘lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta‘lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo‘riqish holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. <https://lex.uz>
2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. p.f.d. disser. – T., 2007. 305-b.
3. Himmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi: p.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2018. - 70 b.
4. O‘rinov U.A. Oliy ta‘lim bitiruvchilarini tayyorlashga oid ilmiy – uslubiy ishlar va tadqiqotlar tahlili // Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendiriu. 2020. №1 82-87 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыто содержание развития профессиональной компетентности студентов.

SUMMARY

This article describes the content of developing students' professional competence.